

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“KELISHILGAN”**  
Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi:

\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2021 yil

**“TASDIQLAYMAN”**

Samarqand davlat universiteti  
rektori:  
prof. R.I. Xalmuradov



\_\_\_\_\_ 2021 yil

**5A120403 – ETNOGENEZ  
(O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI)  
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA  
KIRISH SINOVLARI UCHUN  
MAXSUS FANLARDAN  
DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

### **Annotatsiya**

Dastur 5A120403 – «Etnogenez (o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi)» magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5120400-Arxeologiya ta'lim yo'nalishining 2017/2018 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **TUZUVChILAR:**

N.U.Xolmatov - SamDU Arxeologiya kafedrasida dosenti, t.f.d.

M.Saidov-O'zFA Arxeologiya instituti YeIX, t.f.n.

Dastur Tarix fakultetining 2021 yil 29 iyundagi № 12 sonli kengashi yig'ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab mazkur hududda kechgan davlatchilik jarayonlari hamda o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish dolzarb masala darajasiga ko'tarildi. Xalqimizning o'z tarixi va milliy qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, ajdodlarimizning turli moddiy ma'naviy yodgorliklarni tadqiq etish ishlari qo'llab quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublika rahbariyati bu borada tashabbuskorlik ko'rsatib, tarixchi, arxeolog va sharqshunos olimlar oldiga xalqimizning qadim tarixini qaytadan, haqqoniy ravishda yaratish vazifasini qo'ydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda "O'zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. 1998 yil 11 avgustda bo'lib o'tgan akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish" Respublika ilmiy seminarida tayyorlangan "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi" loyihasi ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari, bir so'z bilan aytganda ilm ahli bilan uchrashib, ular bilan ilm-fanni yanada rivojlantirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini amalga oshirish borasidagi ishlari, Respublikamiz Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muxofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 19 dekabr № 4068 qarori bu boradagi sezilarli qadam bo'ldi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassislikning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va etogenez (o'zbek xalqining etnik tarixi) tadqiqotlarni olib borish, Etnologiya asoslari, Markaziy Osiyo etnologiyasi, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, dala etnografik tadqiqotlar va ularni olib borish usullari, etnogenez asoslari, etnogenez va etnik tarixning nazariy metodologik asoslariga doir bilimlarni mustahkamlash hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

## **Asosiy qisim**

Etnologiya, etnogenez va etnik tarix fanining shakllanish tarixi. Etnologiya, etnogenez va etnik tarixning ijtimoiy-gumanitar fanlar orasidagi o'rni. Etnologiya, etnogenez va etnik tarix fanini rivojlantirishda xissa qo'shgan olimlar. O'rta Osiyo etnologiyasi, tarixiy antropologiya, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi fanining rivojlanishi. Etnogenetik taraqqiyot bosqichlar tamoyillari.

Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari. Manbalarning turlari. Etnologik tadqiqotlar. An'anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnososiologik tadqiqotlar o'tkazish usullari.

Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari. Manbalarning turlari. Etnologik tadqiqotlar. An'anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnososiologik tadqiqotlar o'tkazish usullari.

Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari. Manbalarning turlari. Etnologik tadqiqotlar. An'anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnososiologik tadqiqotlar o'tkazish usullari.

Markaziy Osiyo xalqlari , xususan O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, etnogenez asoslarini xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

– O'zbek xalqining qadimgi tarixi, etnogenezi va etnogenetik rivojlanishining asosiy bosqichlarini o'rgatishdan iborat.

– O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, etnogenez asoslari. Etnogenez va etnik tarixning nazariy va metodologik asoslarini, Respublikamiz mustaqilligi yillarida qadriyatlar, an'analar, urf-odat va marosimlarni bilishga bo'lgan e'tibor talkinini bilishi kerak .

– magistr tarixiy, etnologik ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish lozim. Etnologik ma'lumotlar, manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak;

– Etnologiya muzeyi, etnologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondi, dala etnologik so'rovlar, arxiv materiallaridan foydalanish *malakalariga ega bo'lish* kerak.

5120400-Arxeologiya ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A120403 – Etnogenez (o'zbek xalqining etnik tarixi) mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan ixtisoslik fanlari bo'yicha: Etnologiya asoslari, Markaziy Osiyo etnologiyasi, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, dala etnografik tadqiqotlar va ularni olib borish usullari, etnogenez asoslari, etnogenez va etnik tarixning nazariy metodologik asoslari fanlaridan topshiriqlari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida keltirilgan.

### **Etnologiya asoslari: Dunyo xalqlari klassifikasiyasi**

Geografik klassifikasiya. Tarixiy-etnologik viloyatlar. Dunyo xalqlarining antropologik tarkibi. «Irqlar», «irqiy tiplar». Yirik irqlar va ularning xususiyatlari. Kichik irqlar. Til klassifikasiyasi. Morfologik va gnesologik. Til oilalarining genetik aloqalari. Etnos va til munosabatlari. Mustaqil tillar haqida. Din etnos madaniyatining muhim omili sifatida. Dunyo dinlari: islom, xristianlik, buddizm. Davlat dinlari. Urug'-qabilachilikka oid diniy tasavvurlar. Xo'jalik madaniy tiplar. Ho'jalik-madaniy tiplarning (HMT) asosiy belgilari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik-madaniy tiplari.

### **Dunyo xalqlarining etnologik tavsifi. Avstraliya va Okeaniya xalqlari**

Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari. Avstraliya va Tayemaniyaliklarning kelib chiqishi. Polineziyaliklarning shakllanishiga oid g'oyalar. V.Gumbold, Te Rangi Xiroalar g'oyasi. Tur Xayerdalning polineziyaliklarni Amerika aholisi bilan aloqador ekanligi haqidagi g'oyasi. Yevropaliklarning Avstraliya va Okeaniyaga kirishi. Yangi Gvineya papuaslari. Lingvistik va antropologik xususiyatlari. Melaneziya xalqlari. Xo'jaligi, moddiy va madaniyatlaridagi o'ziga xosliklar. Polineziya xalqlari. Irqiy xususiyatlari, tillari. Aholining an'anaviy xo'jaliklari. Moddiy madaniyatlari. Diniy tasavvurlar. Mikroneziya xalqlari etnologiyasi. Ijtimoiy tuzumlari. An'anaviy dinlari.

### **Osiyo xalqlari aholisi**

Osiyo qit'asi xalqlariga oid umumiy ma'lumotlar. G'arbiy (Old), Janubiy va Janubiy – Sharqiy, Markaziy va Sharqiy Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Zamonaviy aholisining etnik tarkibi. Lingvistik va antropologik klassifikatsiyasidagi xususiyatlar. Old Osiyo dehqonchilik va chorvachilik vatani sifatida. Xo'jalik taraqqiyoti. Asosiy xo'jalik madaniy tiplari. Aholining uy-joylari, kiyim-kechaklari, taomlari. Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatlari. Xalq og'zaki ijodi. Aholining oilaviy turmushi va ijtimoiy, diniy munosabatlari.

### **O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari**

O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Irqiy hamda tillardagi umumiylik va o'ziga xosliklar. Aholining an'anaviy xo'jaliklari. Xo'jalik madaniy tiplar va etnik chegaralar nomutunosibligi. Dehqonchilikning vujudga kelishi, taraqqiyoti. Moddiy madaniyati. Uy-joylarning aholi xo'jaligi bilan bog'liqligi. An'anaviy kiyimlari. Hunarmandchilik. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining taomlaridagi xususiyatlari. Ijtimoiy tashkilotlari. Mahallachilik an'analari. Xalq og'zaki ijodi. «Alpomish», «Manas», «Ker-Ogli». Islom va uning aholi ma'naviy madaniyatiga ta'siri.

### **Afrika xalqlari**

Afrikaning geografik holati. Qit'aning antropogenez xudud ekanligi haqida. Irqiy klassifikatsiya. Katta irqalar. Kichik irqiy tiplar. Bushmen . Pigmey, Koysan, Xabashlar, Malgashlar. Lingvistik klassifikatsiya. Asosiy til oilalari. Afrika aholisining zamonaviy holati. Al Farg'oniy, Muhammad Xorazmiylar asarlarida Afrika xalqlariga oid ma'lumotlar. Etnik tarixi. Paleolitga oid topilmalar. Neolit. Ishlab chiqarish xo'jaligining shakllanishi va keyingi taraqqiyoti. Dastlabki davlatlar, Gana, Mali, Songai, Aksum va boshqalar. Afrikaning ovchi va terimchi qabilalari. Gontentot, bushmenlar, pigmeylar. Qit'aning chorvachilik aholisi. Nomadizm. Dehqonchilik. Motiga va omoch dehqonchiligi. Afrikaliklarning uy-joylari, ularga xo'jalik faoliyatining ta'siri. Idishlar, taomlar. Aholining an'anaviy kiyimlari. Ijtimoiy hayot. Farzand tug'ilishi, ism qo'yish bilan bog'liq udumlar. To'y va to'y marosimlari. Xalq og'zaki ijodi. Tatiurovka. Diniy tasavvurlar. Fetishizm, Animizm, Totemizim. Dunyo dinlarining tarqalishi. Xristianlik. Islom dini. Jaynizm.

### **Amerika xalqlari**

Etnik tarixi. Irqiy xususiyatlari. Shimoliy Amerika xalqlari. Yevropaliklar istilosi, tub aholisining lingvistik klassifikatsiyasi. Amerika aholisining xo'jalik madaniy tiplari. Arktika ovchilari va baliqchilari. Tlinkitlar, irokez va algonkinlar xo'jaligi. Hindularning moddiy madaniyatlari. Din va diniy tasavvurlar. Amerikaning zamonaviy aholisi. Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari. Tillari. Xo'jalik -madaniy tiplar. Dehqonchilik, ovchilik. Ilm-fan. Dinlari. Qishloq jamoalari-aylyular.

### **Yevropa xalqlari**

Etimologik ma'nosi. Yevropa xalqlarining etnik tarixi va shakllanishi. Til klassifikatsiyasi. Hind-Yevropa, Oltoy, Ural til oilalari. Antropologik tarkibi. Kichik irqalar. Yevropa aholisining xo'jaligi va moddiy madaniyati. Uy-joylaridagi o'ziga xoslik. An'anaviy kiyimlari. Ijtimoiy turmushi va ma'naviy madaniyatlari. Xalq og'zaki ijodi. Dostonlar. Ertaklar.

## **O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi fanidan**

### **Kirish. Fan predmeti, maqsad, vazifasi.**

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng Vatanimiz asl tarixini yaratishga alohida e'tibor qaratganligi masalasi. Milliy istiqlol mafkurasi. Ma'naviyatimiz ilk ildizlari masalasi. Milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, urf-odatlarimiz, bayramlarimiz tiklanayotganligi masalasi va bu borada muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning alohida g'amxo'rliqi masalasi. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga yangicha yondashuv va bu borada mavjud konsepsiyalar masalasi. Yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur, millatga iftixor ruhida tarbiyalash masalasi. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini tarixshunosligi. A.Yu. Yakobovskiy, S.P. Tolstov, Ya. G'ulomov, A.N. Bernshtam, K. Shoniyozov, A. Asqarov.

### **O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalasida fanda mavjud bo'lgan ilmiy konsepsiyalar va qarashlar.**

“Etnos”, “etnik birlik”, “elat”, “xalq”, “millat”-atamalari. O'tgan asrning 40-yillarigacha olimlar o'rtasida o'zbek xalqining etnik tarixi XU-XU1 asrdan, ya'ni Movarounnahr hudidiga dashtiqipchoq o'zbeklarining kirib kelishidan boshlanadi, degan fikrning mavjud bo'lganligi masalasi. Bunga A.Yu.Yakubovskiyning qarashlari. 1942 yil 21-29-avgust Toshkent shahrida O'rta Osiyo xalqlarining etnogeneziga bag'ishlangan ilmiy anjumani. S.P.Tolstov, A.D.Udalsov, I.I.Umnyakov. A.N. Bernshtamlarning ma'ruzalari ahamiyati masalasi. Antropolog L.V.Oshanin. S.P.Tolstov, T.A.Jdanko tadqiqotlari. B.G'.G'afurovning tadqiqotlari. M.G. Vahobovning ilmiy qarashlari. B.X.karmishevaning tadqiqotlari. B.A. Ahmedovning ilmiy qarashlari. K. Shoniyozovning o'zbek xalqining etnik tarixi borasidagi tadqiqotlari ahamiyati. A.Asqarovning o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi borasidagi ilmiy qarashlari.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi borasida manbalar: Avesto, Bexustun bitiklari, Grek-Rim tarixchilarining asarlari, antik va ilk o'rta asr Xitoy manbalari, epigrafik, numizmatik manbalar. IX-XIII-asr arab-fors tilida bitilgan tarixiy va geografik asarlar. Abu Rayhon Beruniy asarlari, Maxmud Qoshg'ariy va boshqalar.

### **O'zbeklar etnogenezi va etnik tarixining dastlabki bosqichi (O'rta Osiyoning qadimgi tub joyli aholisi va ular yozma manbalarda aks etishi).**

O'zbekiston xalqlari tarixi juda qadimiy (Selungur va Ko'lbuloq yodgorliklari). O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqida ilk - ma'lumot beruvchi dastlabki manba "Avesto" hisoblanadi. Videvdat. Gavomard (Odam ato), O'rta Osiyoning qadimgi aholisi haqida Ahamoniylarning qoyatosh bitiklari. Behistun yozuvlari, Naqshi Rostam, Suza yozuvi, Persepol devorlaridagi bo'rtma rasmlar. Urta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon mualliflari. Gekatey, Hyerodot, Ktesiy, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon. Urta Osiyoning qadimgi tarixi haqida xitoy manbalari.

### **Antik va ilk O'rta asrlarda O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar**

(O'zbek xalq lari: Axmoniyalar, qang', kushon, toharlar, eftaliylar) Mil.avv. 3-2 asrlarda O'rta Osiyoda tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Davan davlati, Qang davlati. Da-yuyechji qabilalarining O'rta Osiyoning ichki rayonlariga kirib borishi. Qang'ar elati va uning asosini mahalliy so'g'diylar va turkiy qabilalarining tashkil etishi. "Qovunchi madaniyati", "Qizilqir madaniyati". Xioniylar, kidariylar, eftaliylar. Turk hoqonligi. Ilk o'rta asrlarda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va etno-madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz beradi. Turk hoqonligi davrida turkiy go'y etnik qatlamlarning tashkil topishi. Turkiy qabilalarning o'troqlashish jarayonining jadallashuvi.

### **O'zbek elatining tarkib topishii bosqichlari va uning xalq sifatida shakllanishi.**

O'zbeklar xalq bo'lib shakllanganiga qadar qator tarixiy va etnomadaniy jarayonlarni bosib o'tganligi masalasi. Etnogenez jarayonining boshi va yakuni masalasi. A.Yu. Yakubovskiy, SP.Tolstov. O'zbek xalqi etnogenezining 1-bosqichi, 2-bosqichi, M. Isxoqov, 3-bosqichi, 4-bosqichi. Buyuk Turk hoqonligi, Qarliqlar davlati, Qoraxoniylar davlati, K. Shoniyo zov. O'zbek xalqi XI asrda to'la-to'kis XII asrda esa uzil-kesil shakllandi.

### **XIII-XV asrlarda O'rta Osiyoda etnikjarayonlar va o'zbek adabiy tilining shakllanishi.**

XIII boshlarida Movaraunnahrda siyosiy vaziyat. Mug'ullar bosqini. Turk-mong'ul qabilalarining O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi. Jaloyir, barlos, qavchin, arlot. Rashididdin, Abulg'ozzi Bahodirxon, V.V. Bartold, Qang'li, Qarluq Qarluqchigil Lahjasi – jonli eski o'zbek tili

### **O'zbek xalqining XVI-XIX asrlardagi etnik tarixi xususiyatlari, etnomadaniy jarayonlar.**

XV asrning 2-yarmida temuriylar davlatida siyosiy vaziyat. Muxammad Shayboniyxon boshchiligida dashti qipchoq o'zbeklarining Movarounnahrda kirib kelishi. Dashti qipchoqlarning manbalarda tahlili "O'zbek atamasi" XVI-XVIII asrlar davomida Mavorounnahrda yuz bergan siyosiy vaziyat. Turkiy tilning qipchoq-o'g'iz, qarluq chig'il lahjalari. Qarluq chig'il lahjasi uyvorligi. XVI-XVIII asrlarda etnik jarayon. Dashti qipchoqlar kelishi o'zbek xalqining etnik tarkibini o'zgartiraolmadi, balki o'zbeklarning antropologik tipida mug'ul bajara etnik guruhlar qatlamini qalinlashtirdi.

#### **Zamonaviy etnik jarayonlar:**

#### **1. O'zbekiston Respublikasining tashkil topish arafasida etnik holat va milliy hududiy chegaralarining maqsad va mohiyati**

Turkiston aholisi ikki tilligi turkiy – o'zbek va aholining ko'pchiligi turkiy-o'zbek tilida so'zlashishi masalasi. Bu aholining kelib chiqishi jihatidan 3 toifaga bo'linishi: birinchisi "sart" atamasi bilan ataluvchi o'troq aholi; ikkinchisi qadimdan shu zaminda o'troq hayot kechirib kelayotgan muqim turklar; uchinchisi Dashti qipchoq, Mahmud Qoshg'ariy "Sart" atamasi tahlili, A. Navoiy, Z.M. Bobur, "Shajarai turk", "taziq" atamasi tahlili. Turkiston o'zbeklari. Turkiston Muxtoriyati, "Yagona turkiy til bo'lmaganidek, yagona turkiy madaniyat ham

bo'lmaydi" (o'zbek, turkman, qirg'iz). Istiqloqlilik harakatlari, O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishlari masalasi. O'zbekiston milliy respublikasining tashkil topishi, "o'zbek" millati shakllanishi shart-sharoitlari.

## **2. O'zbek millatining shakllanish jarayoni va o'zbek atamasining umumillat etnonimiga aylanishi**

O'zbek millati shakllanishida O'zbekiston SSR tashkil topgach, O'zbekiston nomli milliy davlat tashkil etilgan, O'zbekistonning asosiy xalqi mahalliy turkiy zabon o'zbek xalqi ekanligining qonunlashtirilganligi, har qanday mahalliylik ko'rinishlari, urug'-aymoqchilik sarqitlari, urug' nomlari bilan atalishlar qat'iy man etilgan muhim o'rin tutganligi masalasi. O'zbekistonda amalga oshirilgan kollektivlashtirish, barcha aholi tabaqasi o'zbek nomida O'zbekiston fuqarosi bo'lganligi, matbuot, madaniy hayotda olib borilgan targ'ib-tashviqot ishlari o'zbek millati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligi. Respublikamizda amalga oshirilgan qatog'onlik, sovet hokimiyatining har bir hatti harakati, ta'zviq, qo'rqituv xalq ommasining jiplashuviga olib keldi. 2-jaxon urushida o'zbek xalqining qahramonliklari, millat sifatida shon-shuxrati oshishiga olib keldi. Front orqasida ham o'zbek oilalari barcha qiyinchiliklarni mardonavar yengadi. O'zbek xalqi farzandida o'ziga ishonchi yanada ortdi. 1950 va undan keyngi yillarda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy o'zgarishlarning mohiyati o'zbek millati ruhiyatiga etnik birlik sifatida sinib bordi. Ilm-fan, madaniyat sohasida yutuqlar ta'siri. A. Asqarovning xalq, millat atamalariga bergan izohi masalasi. Millat etnik tarixning eng yuqori cho'qqisidir. Xalq millat darajasiga ko'tarilishi, uning davlati millat nomi bilan yuritiladi. Mustaqil O'zbekiston davlati o'zbek millati uzil-kesil shakllanishining bosh omilidir.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари - тараққиётнинг муҳим омили. 30.12.2016 й. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги сайти. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи, 2016 йил 14 декабр.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. 07.01.2017 йил. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)..
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, Шарқ. 1998.
5. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Ўқув қўлланма, “Университет” нашриёти. Тошкент, 2007.
6. Аширов А. Этнология. (Ўқув қўлланма). Тошкент.: 2007.
7. Жабборов И. М. Жаҳон халқлари этнографияси. Т. Ўқитувчи. 1987.
8. Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси. Т. Ўқитувчи. 1994.
9. Жабборов И.М. Жаҳон халқлари этнологияси асослари. Т. Ўқитувчи, 2008.
10. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент, 2001.



11. Садохин А.П. Этнология.- М.: 2001.
12. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. Тошкент, 2015 йил.

### Қўшимча адабиётлар

1. Си Ма Сян. Фарғона таз кираси. Тарихий хотиралар (“24 тарих” даги Ўрта Осиё га оид материаллар тўплами). Урумчи. 1989. 489-490 б.
2. Матбатаев Б.Х. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида Фарғона. Тошкент, 2001, 35-36 бетлар.
3. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. Москва, 1993.
4. Рахмонов Н. Турк ҳоқонлиги. Тошкент, 1993. 42, 43 бетлар
5. Хўжаев А. Қадимги хитой манбаларидаги туркий халқларга оид айрим этнонимлар. “Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият”. Тошкент, 2003. 178 бет.
6. Ходжаёв Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. Тошкент, 1980, стр. 43-41.
7. Асқаров А. Тархимизнинг уч муаммоси ва уларнинг ечими ҳақида янгича мулоҳазалар. ЎЗИФ журнали, № 5, 2000 йил, 24-28 бетлар.
8. Мурзо Улуғбек Тўрт улус тарихи. Тошкент, 1994 225 бет.
9. Абулғозий Шажараи турк. Тошкент, 1992, 134 бет.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. Тошкент, 2000.
10. Аширов А. Ўзбек миллий менталитети ҳақида баъзи мулоҳазалар. “Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих”. Тошкент, 2004 йил, 54 бет.
11. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. “Ўзбекистон тарихи” журнали, № 4, Тошкент, 2002, 55 бет.
12. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. С.Э., 1947, № VI, VII, с. 304.
13. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Изд-вл. «УзФан», Ташкент, 1941.
14. Шониёзов К. “Қанғдавлати ва қанғлилар”. Тошкент, 1990, 5-бет
15. Шониёзов К. К этнической истории узбекского народа. Тошкент, 1974 .
16. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар “Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар”. Тошкент, 2004, 76-84-бетлар.
17. Асқаров А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа. Сб. «Материалы этнической истории населения Средней Азии» Тошкент, 1986 йил, 3.
18. Асқаров А. Мустақиллик йилларида тарих, археология ва этнология. “ЎЗИФ” журнали. № 6, Тошкент, 1996, 71-бет
19. Гумилёв Л.Н. Этногенез и биосфера земли. М., 1993.
20. Гумилёв Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. М., 1993.

21. Аскарлов А. Арийская проблема: Новые подходы и взгляды. Сб. «История Узбекистана в археологических и письменных источниках». Ташкент, 2005.
22. Исков А. Саразм к вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Душанбе, 1991. с. 5.
23. Геродот История в девяти книгах. Кн. VII, Н. 1972
24. Геродот “Тарих” I, II, III том 117
25. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент, 1996, 34 бет.
26. Арриан. Искандар юришлари. III, IV-китоб.
27. Страбон География. XII китоб, XII боб, 3.
28. Бан Г.У., Чжан Сян Ли. Гуангли таржимаи ҳоли. Хоннама. Урумчи, 1994.
29. Народы Средней Азии и Казахстана. Под.ред. С.П. Толстова. М.1962-1963.

*Интернет ва зиёнет сайтлари*

[www.ziynet.net](http://www.ziynet.net)

[www.xistoriy.ru](http://www.xistoriy.ru)

[www.natura.com](http://www.natura.com)

[www.archaelogy.ru](http://www.archaelogy.ru)

[www.archaelogy.com](http://www.archaelogy.com)

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING**  
**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI**  
**UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING**  
**BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

|   |                    |
|---|--------------------|
| <b>Sinov topshirish shakli</b>            | TEST - kompyuterda |
| <b>Test yechish uchun ajratilgan vaqt</b> | 120 daqiqa         |
| <b>Test savollari soni</b>                | 50                 |
| <b>Har bir to`g`ri javob uchun ball</b>   | 2                  |
| <b>Maksimal ball</b>                      | 100                |
| <b>O`tish bali</b>                        | 55                 |

